

KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARDA ASSOTSIATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Z.N.Ortiqova

Farg'ona davlat unioversiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22893687>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kichik yoshdagi o'quvchilarda assotsiativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Assotsiativ fikrlashning idrok, xotira, tasavvur, nutq va tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinib, uning o'quvchilarning bilish faoliyati va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, assotsiativ fikrlash va kreativlik tushunchalarining o'zaro aloqasi hamda ular o'rtasidagi farqlar izohlangan. Assotsiativ fikrlash turli predmet, hodisa, obraz va tushunchalar o'rtasida bog'lanishlar hosil qilish orqali yangi bilim va g'oyalarni shakllantirishga xizmat qilishi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *assotsiativ fikrlash, kreativlik, kreativ tafakkur, kichik yoshdagi o'quvchilar, boshlang'ich ta'lim, tafakkur, bilish jarayonlari, idrok, xotira, tasavvur, nutq, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, psixologik-pedagogik asoslar.*

Abstract: *This article examines the psychological and pedagogical foundations of developing associative thinking in young learners. It analyzes the close relationship between associative thinking and the processes of perception, memory, imagination, speech, and thinking, and highlights its importance in developing students' cognitive activity and creative potential. The study also explains the relationship between associative thinking and creativity, as well as the differences between these concepts. It is substantiated that associative thinking contributes to the formation of new knowledge and ideas by establishing connections between different objects, phenomena, images, and concepts.*

Keywords: *associative thinking, creativity, creative thinking, young learners, primary education, thinking, cognitive processes, perception, memory, imagination, speech, creativity, independent thinking, psychological and pedagogical foundations.*

Аннотация: *В данной статье освещаются психолого-педагогические основы развития ассоциативного мышления у младших школьников. Анализируется взаимосвязь ассоциативного мышления с процессами восприятия, памяти, воображения, речи и мышления, а также раскрывается его значение в развитии познавательной деятельности и творческих возможностей учащихся. Кроме того, объясняются взаимосвязь и различия между понятиями ассоциативного мышления и креативности. Обосновывается, что ассоциативное мышление способствует формированию новых знаний и идей посредством установления связей между различными предметами, явлениями, образами и понятиями.*

Ключевые слова: *ассоциативное мышление, креативность, креативное мышление, младшие школьники, начальное образование, мышление, познавательные процессы, восприятие, память, воображение, речь, творчество, самостоятельное мышление, психолого-педагогические основы.*

Kichik yoshdagi o'quvchilarda assotsiativ fikrlashni rivojlantirish masalasi zamonaviy boshlang'ich ta'limning muhim ilmiy-metodik muammolaridan biri hisoblanadi, chunki aynan shu yosh davrida bolaning idroki, xotirasi, tasavvuri, nutqi, kuzatuvchanligi va fikrlash faoliyati jadal shakllanadi. O'quvchi atrof-muhitdagi predmet, hodisa, obraz va tushunchalar o'rtasida aloqadorlikni ko'ra boshlaydi, mavjud bilimlarini yangi vaziyatlar bilan bog'laydi, o'xshashlik, farq, sabab-oqibat va mazmuniy munosabatlarni anglash orqali mustaqil xulosa chiqarishga intiladi.

Har qanday bilish jarayonining asosiy mexanizmlaridan biri assotsiativ fikrlash hisoblanadi. Assotsiativ fikrlash – bu inson miyasida turli g'oyalar, obrazlar,

tushunchalar va tajribalar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va ular orqali yangi bilim va g'oyalarni yaratish jarayonidir.

O'zbekiston psixologiya fanida ham tafakkurning turli shakllari, jumladan, assotsiativ fikrlash masalalari chuqur tahlil qilingan. Masalan, taniqli o'zbek psixologi E.G'.G'oziyev o'z ilmiy ishlarida inson tafakkurining rivojlanish qonuniyatlari, uning turlari va shakllarini atroflicha yoritib bergan. Uning fikricha, assotsiatsiyalar inson ongida ma'lumotlarni qayta ishlash va ular o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda fundamental rol o'ynaydi.

Mazkur qarashlar assotsiativ fikrlashni alohida, mustaqil fikrlash turi sifatida emas, balki inson tafakkurining umumiy rivojlanish tizimida idrok, xotira, tasavvur, nutq va mantiqiy tahlil bilan uzviy bog'liq psixik jarayon sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatadi. E.G'.G'oziyev va boshqa o'zbek psixologlari tomonidan tafakkur, bilish jarayonlari va shaxs rivojlanishiga doir ilgari surilgan ilmiy qarashlar kichik yoshdagi o'quvchilarda assotsiativ fikrlashni o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kreativ fikrlash – bu muammolarga yangicha yondashish, innovatsion g'oyalar yaratishvastandart yechimlardan chetga chiqish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish ularning mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashga ega bolalar kelajakda yanada muvaffaqiyatli, moslashuvchan va innovatsiyalarga ochiq bo'lishadi.

Assotsiativ fikrlash – bu insonning ongida bir fikrdan boshqa fikrga bog'lanishlari orqali mantiqiy yoki his-tuyg'uga asoslangan aloqalarni topish jarayonidir. Bu turdagi fikrlashda inson bir ob'ekt yoki hodisani eslaganda, unga bog'liq boshqa tasavvurlar, xotiralar yoki g'oyalar zanjiri paydo bo'ladi. Masalan, "bahor" so'zi eshitilganda, odam ongida gullar, quyosh, qushlar ovozi kabi bog'liq



tasvirlar paydo bo'lishi mumkin. Assotsiativ fikrlash ko'pincha ijodiy jarayonlarda, muammolarni hal qilishda va yangi g'oyalar yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Assotsiativ fikrlash inson miyasining tabiiy xususiyatidir. U har xil ma'lumotlarni bog'lash orqali yangi fikrlar, tushunchalar va yechimlar topishga yordam beradi. Psixologiyada bu turdagi fikrlash ko'pincha ijodkorlik va innovatsiyalar bilan bog'liq deb hisoblanadi, chunki u turli sohalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish orqali yangi yondashuvlar va yechimlar yaratadi. Shuningdek, assotsiativ fikrlash xotira, ong osti fikrlash va intuitiv qaror qabul qilishda ham muhim sanaladi. Assotsiativ fikrlashni rivojlantirish uchun turli metodlar mavjud.

Assotsiativ fikrlash va kreativlik o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lsa-da, ular orasida muhim farqlar mavjud. Assotsiativ fikrlash – bu ongda mavjud bo'lgan ma'lumotlar, tasavvurlar va fikrlar o'rtasida mustaqil va avtomatik bog'lanishlarni topish jarayonidir. Bu jarayonda inson miyasida bir g'oyadan boshqa g'oyaga o'tish sodir bo'ladi va bu odatda tashqi mantiqdan ko'ra ichki aloqalar yoki ta'sirlar asosida bo'ladi.

Kreativlik esa yanada kengroq va murakkab jarayon bo'lib, yangi va original g'oyalar, mahsulotlar yoki yechimlarni yaratish qobiliyatidir. Kreativlik nafaqat turli fikrlarni bog'lashni, balki ularni yangi shaklga keltirish, muammoni yangi nuqtai nazardan ko'rish va innovativ yondashuvlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Ya'ni kreativlik – ijodkorlik va yangiliklarni yaratish jarayonidir, u assotsiativ fikrlashdan tashqari boshqa ko'nikmalar va xususiyatlarni talab qiladi. Xulosa qilib aytganda, assotsiativ fikrlash va kreativlik o'rtasidagi farq ularning funksiyasi va natijasidadir. Assotsiativ fikrlash ongda bog'lanishlarni avtomatik hosil qilish bo'lsa, kreativlik ushbu bog'lanishlardan maslahat olib, yangi va amaliy g'oyalarni yaratish hamda amalga oshirish san'atidir. Shu ma'noda, assotsiativ fikrlash kreativlikning asosiy komponenti sifatida qaralsa-da, ular bir-biridan farq qiladi va har biri o'ziga xos jarayonlarni talab qiladi.



Foydolanilgan adabiyotlar:

1. Mednick, S.A. The associative basis of the creative process // *Psychological Review*. – 1962. – Vol. 69, No. 3. – P. 220–232. – DOI: 10.1037/h0048850.
2. Runco, M.A., Jaeger, G.J. The Standard Definition of Creativity // *Creativity Research Journal*. – 2012. – Vol. 24, No. 1. – P. 92–96. – DOI: 10.1080/10400419.2012.650092.
3. Guilford, J.P. Creativity // *American Psychologist*. – 1950. – Vol. 5, No. 9. – P. 444–454.
4. Vygotsky, L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.